

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik - yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli Qonuni hamda 22.04.2021-yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonuni va 27.09.2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to'g'risidagi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-sonli Qarorlariga asosan;

Shartnomaga ko'ra, umumiy qiymati **104.580.000 so'm** bo'lgan bir tomondan "Oluvchi" hisoblangan Kasbi tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda ikkinchi tomondan "Yetkazib beruvchi" hisoblangan "Aziz-Chiroy-Gullari" oilaviy korxonasi o'rtasida, "Yetkazib beruvchi" "Oluvchi"ga shartnomada ko'rsatilgan shartlarga ko'ra "**mahalliy chim o'ramlari**"ni yetkazib beradi, "Oluvchi" esa "Yetkazib beruvchi"ga shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lovlarni amalga oshirishi to'g'risida;

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot;  
Kasbi tuman obodonlashtirish boshqarmasi, 2022-yil 20-iyun.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Kasbi tuman yuridik xizmat ko'rsatish  
markaz boshlig'i v.v.b.**  
2022-yil 21-iyun



**B.Q.Amrillayev**

**MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI**2022 y. «21» 62022-317-4-61-OB-son**Kasbi tumani**

Aziz -Chiroy- Gullari OK (keyingi o‘rinlarda “Yetkazib beruvchi” deb yuritiladi), o‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi rahbari A.Sobirov bir tomondan va Kasbi tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda “Oluvchi” deb yuritiladi), o‘zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari M.Gulmurodov ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**1. SHARTNOMANING PREDMETI**

1.1. “Yetkazib beruvchi” o‘ziga tegishli bo‘lgan tovar (mahsulot)ni ushbu spesifikasiyaga asosan “Oluvchi”ga mulk qilib topshirish, “Oluvchi” esa tovar (mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lash majburiyatini oladi.

№	Tovar (mahsulot)lar nomi	O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi	Bahosi
1	Mahalliy chim o‘ramlari	m2	2100	49800	104 580 000
	<b>Jami:</b>				104 580 000

**2. TO‘LOV SHARTLARI**

2.1. Ushbu shartnomaning umumiy summasi 104 580 000 (Bir yuz to‘rt million besh yuz sakson ming ) so‘m.

2.2. Sotib olinadigan tovar (mahsulot) uchun oldindan tulov miqdori 30 % 31 374 000 so‘mni tashkil qiladi. Yakuniy 73 206 000 so‘m 70 % to‘lov tovar (mahsulot) olingandan so‘ng 30 (o‘ttiz) bank ish kuni ichida amalga oshiriladi.

2.3. To‘lov shakli naqd pulsiz, pul ko‘chirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

**3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

3.1. “Yetkazib beruvchi”ning majburiyatlari:

3.1.1. Tovar (mahsulot)ni shartnoma talablariga javob beradigan holatda “Oluvchi”ga 2 oy muddatda o‘z vaqtida topshirish.

3.1.2. Tovar (mahsulot)larning sifati ushbu guruxi uchun amaldagi standartlarga muvofiq kelishi kerak. 3.1.3. “Yetkazib beruvchi” to‘plamda yaroqsiz, sifati lozim darajada bo‘lmagan tovar (mahsulot) lar mavjudligi haqida xabar olgan paytdan boshlab 3 kun ichida sifatsiz tovar (mahsulot)ni sifatlisiga almashtirish yoki ushbu shartnomaning 1.1.-bandiga muvofiq sifati lozim darajada bo‘lmagan tovarning pulini qaytarib beradi.



3.1.4. "Yetkazib beruvchi" O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tovar (mahsulot)ga bo'lgan kafolat muddatlarini taqdim etadi.

3.2. "Oluvchi"ning majburiyatlari:

3.2.1. Qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda ushbu shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatda tovarni miqdori, sifati va butligi bo'yicha qabul qilib oladi.

3.2.2. Sifati lozim darajada bo'lmagan tovar keltirilganligi aniqlangan taqdirda, ushbu tovarning sifati lozim darajada emasligi haqida dalolatnoma rasmiylashtirilgan paytdan boshlab 3 kun ichida "Yetkazib beruvchi"ni xabardor qiladi.

3.2.3. Shartnomada belgilangan miqdorda, tartibda va muddatda tovar haqini to'laydi.

#### **4. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH**

4.1 Tomonlarning shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlari uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, ular albatta inobatga olinishi zarur.

4.2. Shartnoma qonunchilik o'zgarganda, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

#### **5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

5.1. Tovarni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va quyidagi miqdorda jarima to'laydi:

5.2. Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standart talablarga mos kelmasa sotib oluvchi tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

5.3. Tovar haqini o'z vaqtida yoki to'liq to'lamaganlik uchun "Oluvchi" har bir kechiktirilgan kuniga to'lanmagan summaning 0,4 % miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.5 Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirilib yuborilgan har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar bahosining 50% idan oshib ketmasligi lozim.

5.6. Neustoykani to'lash taraflarni shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

5.7. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar (mahsulot)lar narhi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq tovar "Yetkazib beruvchi" tomonidan qoplanadi.



## **6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

6.1. Mazkur shartnoma 2022 yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

6.2 Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.

6.3. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin: - tomonlarning kelishuviga muvofiq; - O'z.R. qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda. - Fors-major xolatlarida

## **7. NIZOLARNI HAL QILISH**

7.1. Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan taqdirda O'z.R. Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.

7.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar O'z.R. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunga va Fuqarolik kodeksiga asosan iqtisodiy sudda hal qilinadi.

7.3. Kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda barcha masalalar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi, kelishish imkoni bo'lmaganda iqtisodiy sudda hal qilinadi.

## **8. KORUPSIYAGA QARSHI BO'LGAN HOLATLAR**

8.1. Tomonlar va ularning har biri, poraxo'rlik va korruptsiyaga mutlaqo toqat qilmaslik siyosatiga ega ekanligini tan oladilar va tasdiqlaydilar, bu esa korruptsion harakatlar to'liq taqiqlashni va turli yordam / to'lovlar, uning maqsadli tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq rasmiyatchiliklarni soddalashtirish, osonlashtirishni, tezkorlik bilan ta'minlash masalalarini hal qilishni to'liq taqiqlashni nazarda tutadi.

8.2. Tomonlar o'z faoliyatida poraxo'rlik va tijoriy poraxo'rlik bilan kurashishga qaratilgan qonunchilik va uning asosida ishlab chiqilgan siyosat, tartiblar va tegishli qoidalarga amal qiladilar.

8.3. Tomonlar, ushbu Shartnoma yoki Kelishuv bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari har qanday shaxsga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul yoki qimmatbaho buyum/narsalarni to'lamaydi, to'lashni taklif qilmaydi yoki to'lashga, har qanday nomaqbul ustunlikka erishish yoki boshqa nomuvofiq maqsadlarga erishish uchun ushbu shaxslarning qarorlariga ta'sir ko'rsatishga ruxsat bermaydi.

8.4 Tomonlar, Ushbu Shartnoma yoki Kelishuv bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari amaldagi qonun hujjatlarida pora berish/olish, tijorat pora olish, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari talablarini buzuvchi qonunlar va korruptsiyaga qarshi xalqaro aktlar va boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

8.5. Agar Tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma xabarnomada, Bir taraf boshqa boshqa bir Taraf, uning filiallari, xodimlari yoki vositachilari tomonidan ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lganligini ishonchli tasdiqlovchi yoki ishonish uchun asos beradigan faktlarga murojaat qilishi yoki materiallarni taqdim etishi kerak.



8.6. Agar Tomonlardan biri ushbu band qoidalarini buzsa, boshqa Tomon Shartnoma/Kelishuvdan chiqish to'g'risida yozma bildirishnoma yuborish orqali Shartnomani/Kelishuvni suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli

### 9.FORS – MAJOR

9.1. Taraflardan biri shartnomaning yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulotda muayyan sharoitida oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-xavo sharoiti, hukumat tadbirlari, hokimiyat organlarining qarorlari, xarbiy nizolar, ichki tartibbuzarliklar va boshqa tabiiy ofatlar) fors-major tufayli bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa javobgar bo'lmaydi.

9.2. Mazkur shartnoma bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subektlari faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonunlari talablari buyicha javobgar bo'ladi.




### 10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va har ikkala taraflar orqali imzolanishi kerak.

10.2 Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

10.3 Mazkur 104 580 000 so'mlik shartnoma 2 nusxada tuzilgan shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, Kasbi (tuman) g'aznachilik boshqarmasi (bo'limi) tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

### 10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

"Yetkazib beruvchi"	"Oluvchi"
<b>AZIZ CHIROY-GULLARI OK</b> Manzili Buxoro viloyati tel _____ x/ 20208000905470931001 Bank ipoteka bank ATIB Buxoro vil filali MFO 00088 INN 309124700 Rahbar  A.Sobirov 	Obodonlashlashtirish boshqarmasi Manzili Kasbi tuman Mug'lon qishlog'i tel 75- 642-23-87 shxr 100022860102377065200110005 Bank Markaziy bank Toshkent MFO 00014 INN 206940435 G'azna Moliya Vazirligi G'aznachiligi G'azna 23402000300100001010 G'azna INN 201122919 Rahbar  
	M.Gulmurodov

-sonli shartnomaga  
ILOVA

## Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni (davlat organi yoki tashkilotning nomi) xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;

tovlamachilik qilish;

pora sifatida pul to'lash;

bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon (davlat organi yoki tashkilotining nomi) xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni;

Telegram-kanali ("@XXXXXXXXXX");

(davlat organi yoki tashkilotining nomi) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

TOMONLAR:

Bajaruvchi:  
(E.L.O.)



(davlat organi yoki tashkilotining lavozimi)





**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 101803 на приобретение Махаллий Чим Урамлари харид қилиш**

Способ проведения **электронный**

Дата 16.06.2022

Время рассмотрения 16.06.2022 14:22

Конкурсная комиссия Ободонаштириш бўлими, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	GULMURADOV MUHAMMADJON BAROTOVICH	Рақбар	Ободонаштириш Бошқармаси Қасби
<b>Секретарь комиссии</b>	RJIMOV SEEBZOD RAHXIDOVICH	Бош хисобчи	Ободонаштириш Бошқармаси Қасби
<b>Член комиссии</b>	SADJADAYEV XAKIM ALOVXONOVICH	Бўлим бошлиғи	Ободонаштириш Бошқармаси Қасби
<b>Член комиссии</b>	SAUTINPUZOV VABANAZAR TALNOKOVICH	Бош муҳандис	Ободонаштириш Бошқармаси Қасби
<b>Член комиссии</b>	TURAJEV TURJUN UMRJOVICH	Тех назоратчи	Ободонаштириш Бошқармаси Қасби
<b>Член комиссии</b>	ABDULLAEV ISMAYILLO GULMUKHODOVICH	Иқтисодчи	Ободонаштириш Бошқармаси Қасби

Рассмотрев поступивших предложений со стороны Участников по описанному объекту, участнику объявлено на специальном информационном портале от 16.06.2022 года № лота 101803.

Метод оценки предложений – Балльный метод (Весовой коэф. техника-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 10

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Газон рулонный</b>
Подробное описание	Махаллий чим урамлари харид қилиш.
Количество товара	2 100.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	50 000.00
Стартовая сумма	105 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танлов иштирокчисини салоҳияти

Тип: Текстовое значение

Описание: Гуловла кодирлиги ва айланма маблаглар билан таъминланганлиги турғида маълумотлар. Солиқ ва бошқа гуловлардан қарадорлиги мавжуд эмаслиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AZIZ-СНПРОУ-СУЛЛАРИ ОК	40	Солиқ ва бошқа Гуловлардан қарадорлиги мавжуд эмас	32	Экспертная		
ЧП ZS STAR OPL	40	Солиқ ва бошқа Гуловлардан қарадорлиги мавжуд эмас	15	Экспертная		
МСЧН GREEN ZONE AND SPORT	40	"GREEN ZONE AND SPORT" КОРХОНАСИ солиқлардан қарадорлиги бўлмаган	17	Экспертная		

Критерий №2 Танлов буюртмасини таъминлаш кафолати

Тип: Текстовое значение

Описание: Тагабгор ташилот ишларни сифатли ва белгиланган муддатда туғатиши бўйича расмий кафолат хати тақдим этиши

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AZIZ-СНПРОУ-СУЛЛАРИ ОК	30	кафолат хати	30	Экспертная		
ЧП ZS STAR OPL	30	кафолат хати	12	Экспертная		
МСЧН GREEN ZONE AND SPORT	30	"GREEN ZONE AND SPORT" корхонасининг ишларни сифатли ва белгиланган муддатда туғатиши бўйича расмий кафолат хати	21	Экспертная		

Критерий №3 Танлов иштирокчисини хақида Умумий маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Низом ва Гувоҳномадан тасис ва раҳбарнинг паспорт нусхалари, СТИР

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AZIZ-СНПРОУ-СУЛЛАРИ ОК	30	Низом ва Гувоҳнома мавжуд	26	Экспертная		
ЧП ZS STAR OPL	30	Гувоҳнома	11	Экспертная		
МСЧН GREEN ZONE AND SPORT	30	"GREEN ZONE AND SPORT" КОРХОНАСИ хақида туғилма маълумот	18	Экспертная		

Оценка Участников финансовой части составила:

Наименование участка	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
МСЕЛ GREEN ZONE AND SPORT	105 000 000.00	102 897 900.00	15.06.2022 18:10:38	30.00
ЧП ZS STAR OIL	105 000 000.00	104 895 000.00	13.06.2022 19:33:58	29.43
AZIZ-СHIPOY-GULLARI OK	105 000 000.00	104 580 000.00	13.06.2022 19:24:12	29.52

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
МСЕЛ GREEN ZONE AND SPORT	39.2	30	69.2
ЧП ZS STAR OIL	26.6	29.42883	56.02883
AZIZ-СHIPOY-GULLARI OK	61.6	29.51747	91.11747

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 101803 от 16.06.2022 года на приобретение Махаллий Чим урашлари харид килиш определила победителем:

AZIZ-СHIPOY-GULLARI OK  
309124700


и резервный исполнитель: МСНУ GREEN ZONE AND SPORT (308852460)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	GULJURADOV MOHAMMADJON BAROTOVICH	Согласен	
Член комиссии	TURAJEV TURSON UMROVICH	Согласен	
Член комиссии	SAIDNABIEV XAKIM ALOVXONOVICH	Согласен	
Член комиссии	SAJTPIYAZOV BABANAZAR TALDOROVICH	Согласен	
Член комиссии	ABDULLAEV ISMATULLO GULJURDOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"AZIZ- CHIROY-GULLARI" Oilaviy korxonona

(Yuridik shaxsning - tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"AZIZ- CHIROY-GULLARI" OK

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

16.12.2021

1074054

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil)

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

309124700

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Oilaviy korxonona

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, QAVALI MFY SOG'LOM AVLOD  
KO'GHASI 24-UY.

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, DAVLAT XIZMATLARI tomonidan  
MARKAZI berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organing to'liq nomi)

